

«TASDIQLAYMAN»

Bosh direktorning texnika va AT bo'yicha o'rinbosari

A.R. Abduraxmanov

2026 yil «



«UMS» MChJning noqulay ob-havo sharoitida amalga oshiriladigan zararli,
xavfli mehnat sharoitlari mavjud ishlarda band bo'lgan xodimlari uchun
oraliq mavsumiy maxsus kiyimlar xarid qilish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

«UMS» MChJ («Universal Mobile Systems» mas'uliyati cheklangan jamiyati)
ehtiyohlari uchun

Toshkent sh.

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Zararli, xavfli ishlarda, shuningdek noqulay sharoitlarda (harorat, atmosfera, jismoniy va boshqa) amalga oshiriladigan ishlarda xodimlar «Pochta va telekommunikatsiya xodimlariga maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalarini bepul berish namunaviy me'yorlari»ga muvofiq maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishlari lozim

1.2. Tovarni sotib olishdan maqsad

«UMS» MChJ obyektlarida zararli va xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda, shuningdek, ifloslanish bilan bog'liq va noqulay iqlim sharoitlarida (harorat, atmosfera, jismoniy va boshqa) amalga oshiriladigan ishlarda band bo'lgan xodimlarning xavfsizligini ta'minlash uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bajarish.

1.3. Yangiligi haqida ma'lumot: tovar yangi, ilgari ishlatilmagan bo'lishi, ishlab chiqarilgan yili 2026 yildan oldin bo'lmasligi kerak.

1.4. Talab qilinadigan miqdor va o'lchamlar:

602 to'plam mavsumiy maxsus kiyim (kurtka + shim);

O'lchamlar	44-46	48	50	52	54	56	58	60	62
Dona	40	96	104	129	131	37	37	11	17

2. Yetkazib berish talablari: Tovar ishlab chiqaruvchining butun (shikastlanmagan) o'ramida yetkazib berilishi va uni tashish, jo'natish hamda omborda uzoq muddat saqlash paytida xavfsizligini ta'minlashi lozim. O'lchamlar qatori amaldagi standartlarga va Buyurtmachining o'lchamlariga mos kelishi shart. Tovarni yetkazib berish Yetkazib beruvchining kuchi va mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Yetkazib berishning so'nggi muddati 60 kalendar kun.

2.1. Yetkazib berish manzili: «UMS» MChJ omboriga, manzil: Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy.

3. Mavsumiy maxsus kiyimga (kurtka+shim) qo'yiladigan talablar:

Mavsumiy maxsus kiyim (kurtka + shim) – umumiy ishlab chiqarish ifloslanishlari va mexanik ta'sirlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan.

Ushbu maxsus kiyim bahorda, yozda, erta kuzda issiq sharoitlarda kiyiladi.

3.1. Maxsus kiyim imkon qadar qulay, sifatli, mustahkam chokli bo'lishi, mashina choklarining uzunligi 2 mm dan oshmasligi, buyurtma qilingan o'lchamlar va bo'yga to'liq mos kelishi kerak.

3.2. Logotip kurtkaning chap tomonidagi old koketkasida, balandligi 2 sm x 10 sm o'lchamda, qizil harflar bilan:

mobiuз

3.3. Maxsus kiyim tayyorlash uchun **mato** «nafas oluvchi», 100% paxta, zichligi kamida 240 g/m² bo'lishi kerak, materialning rangi shartnoma imzolanayotganda buyurtmachi bilan kelishiladi.

Mashina choklariga qo'yiladigan talab: to'g'ri va tekis bo'lishi, uzunligi 2 mm dan oshmasligi lozim.

Kurtkadagi cho'ntaklar: old tomonda ko'krak sohasida chap va o'ng tomonlarda gorizontal kesimli, zamokli cho'ntaklar, pastki qismda chap va o'ng tomonlarda vertikal kesimli nakladka cho'ntaklar hamda ichki qismda telefon uchun zamokli cho'ntak.

Shamollatish teshiklari: qo'ltiq osti sohalarida shamollatish teshiklari, to'rsimon qistirmali zamokli yoriqlar mavjud.

Kurtkaning ichki astari: To'rsimon material.

Yopqich (zastyojka): kurtkada – ikki tomonlama «traktor» turidagi zamok, knopkali shamoldan himoyalovchi klapan bilan.

Yoqa: tik turadigan.

Shim: old tomondan ikki yonida vertikal kesimli nakladka cho'ntaklar, yon tomonida tizza sohasida gorizontal kesimli nakladka cho'ntaklar, orqa tomonida gorizontal kesimli 2 ta nakladka cho'ntak. Shimning tizza qismida (matoga eng ko'p yuk tushadigan joy) kuchaytiruvchi qo'shimcha qatlamlar bo'lishi kerak. Shimlar pastga torayib boradi. Shimlar uchun qisman cho'ziluvchan material ishlatilishi maqsadga muvofiq.

4. Barcha maxsus kiyimlarga kafolat: Yetkazib beruvchi talabga javob bermaydigan tovarni Buyurtmachidan qo'shimcha xarajat talab qilmasdan kafolatli almashtirish majburiyatini oladi. Tovar kafolat muddati davomida o'zining iste'mol xususiyatlarini saqlab qolishi va haqiqiy o'lcham talablariga javob berishi shart. Yetkazib beriladigan tovar uchun kafolat muddati Buyurtmachi tovar yuk xatini imzolagan kundan boshlab 6 (olti) oyni tashkil etadi. Kafolat shartnoma bo'yicha yetkazib beriladigan barcha tovarlarga tegishli bo'lishi kerak.

Ishlab chiqdi:

MM bo'yicha katta mutaxassis



F.M. Xakimov

AFQdan foydalanish
guruhi rahbari



Ye.S. Yevstifeyev

Kelishildi:

Tarmoqdan foydalanish
departamenti direktor o'rinbosari



D.A. Atametov